

JURNALISTIKANING TA'SIR FUNKSIYASI VA BADIY PUBLITSISTIKA

Madolimov Hasanboy

NamDU o'qituvchisi

Badiiy publitsistikaning hayotga ta'siri keng va o'ziga xosdir. Jamiyat hayotini ham publitsistik, ham adabiy-badiiy vositalar orqali tasvirllovchi publitsistikaning mazkur turi har tomonlama funksiyalarni bajaradi. Bu turga kiruvchi asarlar bir tomondan hayot voqea va hodisalari to'g'risida xabar bersa, ikkinchi tomondan uni tahlil ham qiladi va uchinchi tomondan esa hayotni san'at vositalari yordamida jonlantirib tasvirlash orqali o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatadi, ularni estetik jihatdan tarbiyalaydi. Badiiy publitsistik asarlarni o'quvchi qiziqib o'qiydi, ulardan badiiy zavq olish bilan birlikda publitsistik ruh ham oladi, dunyodan xabardor bo'lish bilan birlikda uni ham anglaydi, ham bevosita his qiladi. Ya'ni, badiiy publitsistika o'z tarkibida ham publitsistik mantiqiy mushohada, ham badiiy obrazli belletristikani jamlagan holda insoniyatga xizmat qiladi. Bu turli jihatlarining o'zaro munosabati, uyg'unligi esa badiiy publitsistika oldiga qo'yilgan ijtimoiy-badiiy talablardan kelib chiqadi va o'z navbatida mazkur ijtimoiy-ijodiy sohaning hayotga ta'sirini ham belgilab beradi.

Badiiy publitsistik janrlarning boshlang'ich janri bo'lmish lavha asosan axboriy xususiyatga ega bo'lib, hayotdagi fakt, voqea va hodisalar haqida xabar berar ekan, buni badiiy vositalardan talab etarli darajada foydalanadi va shu yo'l bilan mazkur xabarni o'quvchiga jonlantirilgan, qiziqarli holda taqdim etadi. Shu boisdan ham oddiy xabarga qaraganda lavha o'quvchini o'ziga ko'proq tortadi, hayotga ta'siri ham yuqoriroq bo'ladi. Lavhaning bu xususiyatidan xususiy gazetalar ko'proq foydalanadilar, umumsiyosiy, rasmiy maqomga ega bo'lgan nashrlar o'z xususiyatidan kelib chiqib, undan kamroq foydalanadilar. Ana shu boisdan ham o'quvchi jiddiy, rasmiy nashrlardan ko'ra har bir xabarni turli badiiy tasvirlarga "o'rab" beruvchi xususiy nashrlarni afzalroq ko'radi. Shunday ekan, markaziy rasmiy nashrlar ham o'z sahifalarida bu imkoniyatdan kengroq foydalanishsa, ko'proq muvaffaqiyatga erishishlari mumkin deb o'ylaymiz. Albatta, "Xalq so'zi" yoki boshqa markaziy rasmiy nashrlar o'z sahifalarini boshdan-oyoq

“badiiylashtirib” yuborishlari maqsadga muvofiq emas, ammo, har qalay, unda bosilayotgan har bir xabar yoki axboriy publitsistikaga oid material qiziqarli, yorqin tarzda berilsa, sarlavhasi, faktlar bayoni ham o‘quvchini o‘ziga tortib tursa, bunday nashrning ijtimoiy hayotga ta’siri yuqori bo‘lishi turgan gap. Mustaqil gazeta “Hurriyat“, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetalari lavha janridan shu tarzda unumli foydalanayotganliklarini ko‘rish mumkin.

Badiiy publitsistik janrlardan biri ocherkdir. Hayotni ham publitsistik mushohada, ham badiiy bo‘yoqlar bilan tasvirlash talab etiladigan bu badiiy-publitsistik janrning ijtimoiy ta’siri ham sezilarlidir. Mazkur janr bir tomondan hayotdagi boshqalarga o‘rnak bo‘ladigan voqea va hodisalar, o‘z mehnati va faoliyati bilan yangilik, boshqalarga ibrat bo‘larli darajada moddiy va ma’naviy boyliklar yaratayotgan turli kasb kishilari haqida xabar ham qiladi va ular erishgan yutuqlarni tahlil ham qilib beradi hamda ularning obrazlarini ham yaratadi. Mazkur janrdagi asar hayotga ham har tomonlama o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Avvalo, o‘quvchi bunday asar orqali ijtimoiy hayotdagi yangiliklar, ilg‘or kishilar borasida ma’lumotga ega bo‘lsa, ikkinchidan, ijtimoiy tahlil vositasida ular erishgan yutuqlarni anglaydi, mulohaza qiladi, jonlantirilgan tasvir va obrazlilikdan esa badiiy zavq oladi. Sho‘rolar tuzumi davrida o‘sha davr shiorlariga javob sifatida ko‘plab yozilgan bu janr endilikda hayotimizda erishilayotgan ilg‘or ish omillari, ijtimoiy yangiliklar haqida hikoya qiluvchi ta’sirchan publitsistik asar sifatida xizmat qilishi, hayotga o‘zining badiiy-publitsistik ta’sirini o‘tkazmog‘i zarur. Mazkur janrning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, portret ocherki o‘z mehnati, yaratuvchilik faoliyati bilan boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan kishilar haqida hikoya qilsa, voqea ocherki esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan katta qurilishlar, ulkan rejalarni yorqin bo‘yoqlarda aks ettirishi, muammo ocherki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy hayotidagi turli muammolarni ko‘tarib chiqib, ularning hal bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shmog‘i zarur. Yo‘l ocherklari esa o‘quvchilarga o‘lkamiz va dunyodagi turli mamlakatlar, diqqatga sazovor joylar haqida hikoya qilib bermog‘i kerak. Sud ocherklari huquqiy holat va muammolarni ko‘tarib chiqib, ularning hal etilishiga xizmat qilishi zarur. Ko‘rinib turibdiki, mazkur janrdan o‘z o‘rnida foydalanish har bir matbuot nashrining o‘quvchilarga manzur bo‘lishida, ya’ni samaraga erishuvida ahamiyatga molikdir.

Oʻzida ham publitsistik, ham ilmiy, ham badiiy xususiyatlarni jamlagan yana bir badiiy-publitsistik janr – esse haqida ham shu fikrlarni aytish mumkin. Mazkur janr oʻzida ijtimoiy hayotning barcha qirralarini aks ettirishi, muammo va masalalarni koʻtarib chiqishi mumkin. Odatda mazkur janr koʻproq jurnal nashrlaridan joy oladi, gazetalarda esa odatda “badia” yoxud “badiha” deb nomlanuvchi qisqaroq koʻrinishlari beriladi. Hayot voqea va hodisalari, davr muammolari, kishilarning hayoti va faoliyatlarini erkin, har taraflama aks ettiruvchi mazkur janrning ijtimoiy-badiiy taʼsiri ham muhimdir. “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasi, “Tafakkur” jurnali mazkur janrdan unumli foydalanib keladi. Bu janrning hayotga ijtimoiy-badiiy taʼsiri ham oʻziga xosdir.

“Auditoriyaning axborotni qanday qabul qilishi uni uzatishda qaysi axborot vositalaridan foydalanilayotganligiga ham bogʻliq. Har bir axborot vositasi oʻziga xos til va axborotni aktuallashtirish uslublaridan foydalangani holda, uning tabiatini shakllantiradi, bu esa, oʻz navbatida, borliq haqidagi fikr-mulohazalarga taʼsir etadi”.¹ Publitsistikaning oʻziga xos turi boʻlgan hamda hayotni alohida bir usul – ijtimoiy kulgidan foydalangan holda yorituvchi hajviy publitsistikaning ham hayotga taʼsiri alohida katta oʻringa ega. Hajviy publitsistikaning asosiy janrlari boʻlmish felyeton hayotdagi ayrim kamchilik va nuqsonlarni fosh etishda muhim oʻrin tutsa, pamflet esa jamiyat tarqqiyotiga toʻsiq boʻlayotgan yirik ijtimoiy nuqsonlar va faoliyatlarni fosh etishda tengi yoʻq janrligi maʼlum. Bu janrlar ostida beriladigan har qanday material oʻquvchini befarq qoldirmaydi, u albatta oʻqib chiqiladi. Turgan gapki, uning oʻquvchi ongiga taʼsiri jiddiy publitsistik materiallardan kuchliroq boʻladi. “Pamflet va feleton janrlari nafaqat axborotni yetkazish, balki unga oʻquvchida muayyan munosabat uygʻotish va hattoki chora qoʻrishga undashga qaratilganligi uchun ham ularda taʼsirchanli juda kuchli”.² Ammo, afsuski, keyingi paytlarda gazeta va jurnallarimiz mazkur janrlardan juda kam foydalanishmoqda, bu esa oʻsha janrlarning kishilar ongiga taʼsirini ancha boʻshashtirib qoʻymoqda, desak xato qilmagan boʻlamiz.

¹ Бакиева Г., Тешабаева Д. Оммавий ахборот воситалари тили. – Тошкент, “OʻZKITOBSAVDONASHRIYOT”, 2020. 171 бет, 8-бет

² Журналистика: босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари. V жилд. – Тошкент, “Oʻzbekiston”, 2019. 510 бет. 429-бет

Ko‘rinib turibdiki, ommaviy axborot vositalarida bosiladigan materiallarning o‘zagini tashkil etuvchi publitsistika va uning turli ko‘rinishlari hamda ularga tegishli bo‘lgan janrlar asosida berib boriladigan matnlarning hayotga ta’siri kuchlidir. Bu materiallar hayot voqealarini tasvirlaydi, tahlil qiladi va shu bilan birlikda kishilar ongiga va binobarin, ularning dunyoqarashi shakllanishi hamda faoliyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon doimiydir va ijtimoiy hayotning barcha qirra va sohalarini qamrab oladi. Shu bilan birlikda ommaviy axborot vositalarining hayotga, kishilar ongiga ta’siri turlicha ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Agarda publitsistik materiallar asosan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni qamrab olsa, gazeta va jurnallarda bosiladigan ayrim materiallar insonning hayoti, sihat-salomatligi va boshqa huquqiy, maishiy masalalarga bag‘ishlanishi mumkin. Bunday materiallarda ham tasvir, tahlil unsurlari mavjud bo‘ladi, ya’ni ularda biror fakt, masala haqida xabar beriladi, tahlil etiladi va bularning natijasi sifatida o‘quvchiga ayrim maslahatlar beriladi. Bunday materiallarga ayrim umumsiyosiy va huquqiy gazetalarda “Huquqshunos maslahati”, “Sizning advokatingiz”, “So‘rang, javob beramiz” kabi ruknlar ostida beriladigan materiallar, sihat salomatlik borasidagi maqolalar, mutaxassis maslahatlari kabilar misol bo‘lishi mumkin. Turgan gapki, bunday materiallarning berib borilishi o‘sha matbuot nashrining o‘quvchilarga manzur bo‘lishiga, uning ta’sir kuchining oshishiga xizmat qiladi. Gazeta va jurnallarda beriladigan reklama va e’lonlarga kelsak, garchi ular bevosita matbuot materiallari sirasiga kirmasa-da, ularning mazmuni, sifati va ahamiyatidan kelib chiqqan holda ta’sir funksiyasiga xizmat qilishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalarida bosiladigan materiallarning bir qismi kishilarning diqqatini jalb qilish, ularning ko‘nglini ochib, hordiq chiqarishlariga mo‘ljallanadi. Bu xildagi materiallarning ahamiyati kattaligi boisidan ayrim olimlar buni matbuotning alohida – rekreativ funksiyasi deb ham ataydilar. Bizningcha, bu tizim funksiyasiga ko‘ra alohida funksiya bo‘la olmaydi, balki matbuotning mavjud tasvir, tahlil va ta’sir funksiyalaridan kelib chiquvchi ma’lum sohaga, muayyan mavzularga bag‘ishlangan materiallar sirasiga kiradi. Bunday materiallarga gazeta sahifalarida beriladigan har xil ko‘ngilochar matnlar, testlar, boshqotirmalar, krossvord va chaynvord kabilar misol bo‘lishi mumkin. Turgan gapki, bunday materiallar ommaviy axborot vositalarining

barchasida emas, balki asosan hordiq chiqarish uchun mo'ljallangan alohida nashrlarda berib boriladi. Yoshlar uchun mo'ljallangan nashrlarda, hayotni adabiy-badiiy usulda tasvirlovchi jurnallarda ham bunday materiallardan ijodiy foydalanish o'sha nashrning ommalashuviga, binobarin, ta'sir funksiyasining oshishiga hissa qo'shishi mumkin.

Matbuotning hayotga bevosita, ya'ni o'quvchilarning ongi, his-tuyg'ulari orqali ta'sirini, boshqacha qilib aytganda, matbuot nashrlarining samaradorligini oddiy ko'z bilan ko'rish qiyin, zero bu jarayon ommaviy ravishda amalga oshadi. Bu o'sha davr kishilarining ongida, ruhiy holatlarida, his-tuyg'ularida, jamoatchilik fikrida namoyon bo'ladi. Masalan, olaylik, sho'rolar tuzumi davrida faoliyat ko'rsatgan matbuot kishilar ongiga bu davrda hukmron bo'lgan kommunistik ta'limotni anchagina singdirib ulgurgan edi. Mamlakatimiz o'z milliy mustaqilligiga erishgandan so'ng ommaviy axborot vositalari hayotni yakka g'oya hukmronligidan holi, ilmiy xolislik bilan yoritib, kishilar ongiga demokratik qadriyatlar, milliy mustaqillik g'oyalarini singdira boshladi. Biz o'tgan qisqa bir davr ichida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy sohada yangicha dunyoqarashga, olamni yangicha anglashga erisha oldik. Matbuot nashrlari ommaga boy tariximiz, o'ziga xos yuksak milliy madaniyatimiz, ajdodlarimizdan qolgan qimmatli qadriyatlarni yetkazib berdi va endiga kelib mustaqil mamlakatimizning har bir fuqarosi o'z tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlarini chuqur anglagan holda ular bilan faxrlanadi. Shu bilan birlikda bizning milliy qadriyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar, jahonda tan olingan ilmiy tushunchalar bilan chambarchas bog'liqligi, uni to'ldirib kelishi ham muhimdir. Shu boisdan dunyo xalqlari ham o'zbek xalqining tarixi, milliy madaniyati, o'lmas qadriyatlarini anglamoqda va hurmat bilan qaramoqda. Turgan gapki, bunga erishishda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining faoliyati, unda ta'sir funksiyasining doimiy ravishda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga egadir. Bu uzluksiz jarayon, matbuot nashrlarining jamiyat hayotiga kishilar ongi va his-tuyg'ulari orqali ta'sir ko'rsatishi to'xtamay davom etaveradi.

Ommaviy axborot vositalarining hayotga ta'sirining turli qirralari mavjuddir. Filologiya fanlari doktori M.Xudoyqulov jurnalistikaning ta'sir funksiyasini ikki xil, ya'ni

bevosita va bilvosita bo'lishini ta'kidlaydi.³ Bevosita ta'sir matbuot nashrlarining tasvir va tahlil funksiyalarini ado etish orqali o'quvchilarning ongi va his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish bo'lsa, bilvosita ta'sir matbuot materiallarining samaradorligi, ya'ni natija berishi orqali amalga oshadi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatdagi asosiy boshqaruv tizimlari – qonun chiqaruvchi, ijro, sud maqomidan keyin – “to'rtinchi hokimiyat” sanalgan matbuotning ta'siri amalga oshishida undan oldingi uch bosh tizim yordamga keladi. “OAV fuqarolik jamiyatida mustaqil institut sifatida faoliyat yuritir ekan, bu jarayonda ular hokimiyatni tashkil etishda ishtirok etadigan siyosiy subyektlar – davlat, uning qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlari, siyosiy partiyalar va boshqa ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar bilan bevosita munosabatda bo'ladi”, deb yozadi tarix fanlari doktori N.Abdulazizova.⁴ Zotan, matbuotning hayotga bilvosita ta'siri yuqoridagi davlat boshqaruvi institutlari, ijtimoiy ongning matbuotga yaqin turuvchi boshqa ko'rinishlari orqali amalga oshiriladi. Bu esa jurnalist (yoki biror fuqaro) – matbuot sahifasidagi material – shu sohaga doir davlat idorasi yoki ijtimoiy tashkilot – natijaning matbuotda e'lon qilinishi tarzida amalga oshiriladi. Ya'ni, matbuotda bosilgan biror taklif, mulohaza, muammoning yechimi yoki tanqidiy mulohaza tegishli davlat qonunchilik, ijroiya hokimiyati yoki huquq idoralari tomonidan tekshirilib, tegishli xulosa chiqariladi, chora ko'riladi va bu haqda o'sha material bosilgan matbuot nashriga tegishli javob yo'llanadi hamda bu javob o'sha matbuot nashrida bosib chiqariladi. Shu zaylda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan matn, so'z – moddiy kuchga aylanadi, jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Matbuotda ta'sir funksiyasining bilvosita, ya'ni ommaviy axbrot vositalarida bosilgan materiallarning boshqa tashkilotlar tomonidan tekshirilib, ularda ko'tarilgan masalalarga munosabat bildirish, qilingan taklif va mulohazalarni amalga oshirish, tanqidiy fakt va hodisalarga chora ko'rish borasida hozirgi o'zbek matbuotida ham ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda. Markaziy umumsiyosiy gazetalar o'z sahifalarida bosilgan materiallarning natijasini goh-goh e'lon qilib boradilar. Ammo aytish kerakki, bunday hollar yetarli emas.

³ Қаранг: Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. – Тошкент: “Тафаккур”, 2011. – 40-бет

⁴ Абдуазизова Н. Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларини эркинлаштириш: генезис ва амалиёт. Тошкент: “Akademiya”, 2011. – 29-бет

Buni markaziy umumsiyosiy gazetalarimizda tanqidiy materiallarning kamayib ketganligi bilan ham izohlash mumkin. Holbuki, markaziy nashrlarimiz o'z sahifalarida ijtimoiy hayotning muhim masalalari bo'yicha tanqidiy chiqishlar qilib, buni tegishli idoralar tomonidan tekshirilib, muayyan choralar ko'rilishiga erishsalar matbuotning ta'sir funksiyasini yanada to'laroq bajarishga erishgan, o'quvchilarning e'tiborini yanada tortgan bo'lar edilar. Respublikamizdagi yagona kulgi va hajv jurnali "Mushtum" matbuot ta'sir funksiyasining bilvosita ko'rinishiga doimo alohida ahamiyat berib keladi. Jurnalning deyarli har bir sonida oldinroq bosilgan felyeton va boshqa janrlardagi tanqidiy materiallarga joylardan kelgan javoblar muntazam ravishda bosib boriladi. Jurnalda doimiy ravishda berib boralayotgan bunday javob xatlari tahririyatning ta'sir funksiyasini bajarishga alohida e'tibor qaratayotganligini ko'rsatib turibdi. Bu esa matbuot materiallari samaradorligining oshishiga, nashrning ommabop bo'lishiga olib keladi. Boshqa nashrlar ham bu masalaga e'tiborlarini kuchaytirsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa qilib aytsak, jurnalistikaning ta'sir funksiyasi ommaviy axborot vositalari faoliyatida katta o'rin tutadi. Bu funksiya o'zidan oldingi tasvir va tahlil funksiyalarining mantiqiy davomi sifatida matbuot materiallarining hayotga ta'sirining oshishi, ularning samaradorligi uchun xizmat qiladi. Bu funksiyaning bevosita va bilvosita ko'rinishlari esa bir-birlarini to'ldirib keladi. Qaysi nashr ulardan keng va to'la foydalansa, uning o'z faoliyatini shunchalik muvaffaqiyatli bajarishi ta'min etiladi. Ommaviy axborot vositalarining ta'sirini oshirish uchun egalitar materiallar sonini yanada ko'paytirish kerak, deb hisoblaymiz. Buning natijasida ommaviy axborot vositalari obunachilari soni yanada ortishi haqiqatga yaqin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бакиева Г., Тешабаева Д. Оммавий ахборот воситалари тили. – Тошкент, "O'ZKITOBSAVDONASHRIYOT", 2020. 171 бет.
2. Журналистика: босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари. V жилд. – Тошкент, "O'zbekiston", 2019. 510 бет.
3. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. – Тошкент: "Тафаккур", 2011. – 40-бет

4. Абдуазизова Н. Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларини эркинлаштириш: генезис ва амалиёт. Тошкент: “Akademiya”, 2011.